

Forum doirasida psixologik seminar-trening tashkil etildi

// 10 June 2026 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/forum-doirasida-psixologik-seminar-trening-tashkil-etildi>



Kimyo sanoati yosh mutaxassislari forumi doirasida Im-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish fondi bilan hamkorlikda psixologik seminar-trening bo'lib o'tdi.

Trening davomida mutaxassislar tomonidan shaxsiy rivojlanish, liderlik qobiliyatlarini shakllantirish, jamoada samarali ishlash, muloqot madaniyati hamda stressli vaziyatlarni boshqarish mavzularida ma'ruzalar qilindi.



Seminar ishtirokchilarga o'z ustida ishlash, kasbiy faoliyatda samaradorlikni oshirish hamda jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha foydali tavsiyalar berilishi bilan ahamiyatli bo'ldi.





